

AHOLI TADBIRKORLIGINI KREDITLASHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Xusainov Xusan Baratovich
Kimyo Xalqaro Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Email: yangihayot456x@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholi tadbirkorligini kreditlash tizimining bugungi holati, ushbu yo‘nalishda mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish masalalari yoritilgan. Aholi o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishda kredit mablag‘larining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlariga ta’sir etuvchi omillar, kredit olish jarayonidagi to‘siqlar, foiz stavkalari, garov ta’minoti va moliyaviy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan. Maqolada aholi tadbirkorligini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish masalalariga e’tibor qaratilgan.
Kalit so‘zlar: aholi tadbirkorligi, kreditlash tizimi, kredit resurslari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, tijorat banklari, kredit foiz stavkalari, garov ta’minoti, tadbirkorlik faoliyati, moliyaviy imkoniyatlar, kichik biznes.
Abstract: This article examines the current state of the lending system for entrepreneurship among the population, identifies existing challenges in this area, and explores possible solutions. It analyzes the role and importance of credit resources in promoting entrepreneurial activities, creating new jobs, and increasing household incomes. Furthermore, the article considers the factors affecting entrepreneurs' access to credit resources, barriers to obtaining loans, interest rates, collateral requirements, and challenges associated with accessing financial resources. Particular attention is paid to improving lending mechanisms for population entrepreneurship and increasing the effectiveness of financial support.
Keywords: population entrepreneurship, lending system, credit resources, financial support, commercial banks, loan interest rates, collateral requirements, entrepreneurial activity, financial opportunities, small business.
Абстрактный: В данной статье рассматривается современное состояние системы кредитования предпринимательской деятельности населения, существующие проблемы в данной сфере и пути их решения. Анализируется роль и значение кредитных ресурсов в развитии предпринимательства среди населения, создании новых рабочих мест и повышении доходов граждан. Кроме того, рассматриваются факторы, влияющие на доступ предпринимателей к кредитным ресурсам, барьеры при получении кредитов, процентные ставки, залоговое обеспечение и проблемы использования финансовых ресурсов. Особое внимание уделяется вопросам совершенствования механизмов кредитования предпринимательской деятельности населения и повышения эффективности финансовой поддержки.
Ключевые слова: предпринимательство населения, система кредитования, кредитные ресурсы, финансовая поддержка, коммерческие банки, процентные ставки по кредитам, залоговое обеспечение, предпринимательская деятельность, финансовые возможности, малый бизнес.

Kirish (Введение / Introduction).

Bugungi kunda aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va daromadlarini oshirishda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, aholi tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Aholi tadbirkorligini rivojlantirishda bank kreditlari asosiy moliyaviy manbalardan biri bo‘lib, ular tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni qoplashga xizmat qiladi. Shu bois kreditlash mexanizmlarining samaradorligi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda aholi tadbirkorligini rivojlantirish, oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlash va imtiyozli kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq kredit olish jarayonidagi ma’muriy to‘siqlar, garov ta’minotiga qo‘yiladigan talablar, foiz stavkalari va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ushbu sohada dolzarb muammolar bo‘lib qolmoqda.

Mazkur holatlar aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarning sabablarini aniqlash hamda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy maqsadi aholi tadbirkorligini kreditlash tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish hamda kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review).

Aholi tadbirkorlik faoliyatini kreditlash masalasi zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholi bandligini ta’minlash, o‘zini o‘zi band qilishni rag‘batlantirish hamda hududlarda kichik biznesni rivojlantirishning muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda aholi tadbirkorligini moliyalashtirishning bank-kredit mexanizmlari, davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlash dasturlari, mikromoliyalashtirish va kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu yo‘nalishda xorijiy va mahalliy iqyisodichi olimlar tomonidan keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Avstriyalik iqtisodchi olim Shumpeter (1934)ning fikriga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish nazariyasida bank kreditini tadbirkorlik va innovatsiyalarni harakatga keltiruvchi asosiy vosita sifatida

baholangan[1]. Uning fikricha, kredit kapitalning yangi kombinatsiyalarini yaratish uchun resurslarni safarbar etish qurolidir[2].

Rus olimi Lavrushin (2016)ning fikricha, kreditlashning asosiy vazifasi ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining uzluksizligini ta’minlashdan iborat hisoblanadi[3].

M.Yunus (2010)ning fikricha endi ish boshlayotgan kichik biznes subyektlarini kreditlashda asosiy e’tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so‘ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo‘lgan talabning oshishiga sababchi bo‘lishadi[4].

Aholi tadbirkorlik faoliyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlar nafaqat tarixiy davr mutafakkirlari va davlat arboblari merosida, balki mustaqillikdan keyingi davrda faoliyat yuritayotgan mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham keng qamrovda o‘rganilgan.

B.Berkinov (2018) o‘z qarshlarida, kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy
qo‘llab-quvvatlashda kreditlash mexanizmlarining ahamiyatini alohida ta’kidlab, kredit resurslari tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishda muhim omil ekanligini asoslaganini ko‘rishimiz mumkin[5].

I.Alimardonov (2023) ning ilmiy qarashlarida, kichik biznes subyektlarini kreditlashning nazariy va metodologik asoslari chuqur tadqiq etilgan[6].

Xususan, tadqiqotchi olimning fikricha, tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratiladigan past foizli kreditlar hajmini oshirish zarurligini asoslab bergan.

Mazkur tadqiqotlar bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik materiallari aholi va tadbirkorlik faoliyatini kreditlash dinamikasini empirik jihatdan baholash uchun muhim ma’lumotlar bazasi hisoblanadi. Markaziy bankning rasmiy statistik resurslarida pul-kredit va moliyaviy statistika, bank tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari, tijorat banklarining kreditlash faoliyati hamda statistik byulletenlar muntazam e’lon qilib boriladi.


Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi uchta yo‘nalishda shakllangan: birinchidan, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy va kredit resurslari bilan ta’minlash mexanizmlarini o‘rganish; ikkinchidan, davlat dasturlari va imtiyozli kreditlash vositalarining tadbirkorlikni rivojlantirishdagi rolini baholash; uchinchidan, tijorat banklari kreditlarining kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va mahalla darajasidagi tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini aniqlash. Biroq mavjud tadqiqotlarda aynan aholining tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlarning uzoq muddatli dinamikasi, o‘sish sur’atlari, umumiy kreditlash hajmidagi ulushi, hududlar kesimidagi tafovutlari va kreditlash tarkibining o‘zgarishini yagona metodologik yondashuv asosida kompleks baholash masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Методология исследования / Methods).

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy tadqiqotlar o‘rganilib, keng mushohada qilingan. Tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun aniq yo‘nalish tanlab olingan. Sohaga doir statistik ma’lumot manbalarini o‘rganish va tahlil qilish asosida tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты / Analysis and results).

Mamlakatimiz tijorat banklari amaliyotida aholi tadbirkorligini kreditlash samaradorligini cheklayotgan qator tashkiliy-iqtisodiy va institutsional muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, kredit resurslarini taqsimlashda hududiy nomutanosibliklar, kredit olish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholash mexanizmlaridagi kamchiliklar shular jumlasidandir. Mazkur muammolarni kredit mablag‘laridan foydalanishning maqsadliligi va monitoringi, kredit risklarini baholash va boshqarish, kreditlashning hududiy manzilliligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ajratilgan kreditlarning yakuniy natijadorligini baholash bilan bog‘liq jihatlar bo‘yicha tizimlashtirish va tasniflash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Aholi tadbirkorligini kreditlashdagi mavjud muammolar

Yuqoridagi 1-rasmdagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, aholi tadbirkorligini kreditlashdagi mavjud muammolarni shartli to‘rt guruhga ajratish mumkin: normativ-huquqiy, tashkiliy-institutsional, moliyaviy hamda ijtimoiy muammolar. Mazkur muammolar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning birining mavjudligi kreditlash jarayonining boshqa bosqichlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi[7].

1. O‘zbekistonda aholi tadbirkorligini kreditlash va davlat dasturlari doirasida moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ko‘plab qonunosti va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinayotgan bo‘lib, mazkur huquqiy bazaning muntazam takomillashtirilishi va ayrim hollarda kreditlash shartlari, moliyaviy yordam turlari, kredit va ssudalar miqdori hamda ulardan foydalanish mezonlarining qayta ko‘rib chiqilishi tadbirkorlik subyektlari va tijorat banklarining uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish jarayonida institutsional noaniqlikni yuzaga keltirmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son qarori bilan aholining, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, mikromoliyalash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish hamda aholiga kredit

resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning yangi mexanizmlari joriy etilgan bo‘lsa, mazkur hujjatga 2021–2024-yillar davomida bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan [8]. Xususan, qaror doirasidagi mikrokreditlash va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ayrim institutsional jihatlari qayta ko‘rib chiqilib, mablag‘larni yo‘naltirish, vakolatli tashkilotlar faoliyati va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tartiblariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.

2. Mamlakatimizda aholi tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasida tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan imtiyozli va mikrokreditlar hajmining ortib borishiga qaramay, kredit mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish hamda ularni o‘z vaqtida qaytarish bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda.

3. Kichik biznesni kreditlash amaliyotidagi muammolardan yana biri – tadbirkorlik faoliyatini endi boshlayotgan yoshlar uchun garovsiz kreditlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari kredit ajratishda asosan likvid garov (ko‘chmas mulk, transport vositalari va boshqalar) talab qiladi, bu esa yangi tashkil etilgan biznes subyektlari uchun jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Natijada, ko‘plab yosh tadbirkorlar kredit resurslaridan foydalana olmaydi yoki norasmiy moliyalashtirish manbalariga murojaat qilishga majbur bo‘ladi.

4. Ayollar va xotin-qizlar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash amaliyotida, xususan, “Ayollar daftari” tizimi doirasida kredit mahsulotlarining asosan unifikatsiyalashgan va standartlashtirilgan shartlar asosida taqdim etilishi moliyalashtirish jarayonida ayol tadbirkorlarning individual iqtisodiy va moliyaviy xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olish imkoniyatini cheklamoqda.

5. Monitoring qilish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq muammolar. Xalq bankida kredit risklarini real vaqt rejimida monitoring qilish mexanizmlarining etarli darajada rivojlanmaganligi, xususan, aholi tadbirkorligiga ajratilgan kredit mablag‘larining maqsadli ishlatilishini nazorat qilishda inson omiliga yuqori darajada tayanilayotganligi kredit risklarini tezkor baholash imkoniyatlarini cheklanishiga sabab bo‘lmoqda.

6. Uzoq muddatli kreditlash siyosatini strategik rejalashtirishdagi mavjud muammolar. Tijorat banklarining aholi tadbirkorligini kreditlash yo‘nalishidagi ichki operatsiyalarini, xodimlarning vaqt sarfini va tranzaksion zanjirlardagi kamchiliklarni intellektual tahlil qiluvchi zamonaviy dasturiy majmualar rivojlanmagan, bu esa uzoq muddatli kreditlash siyosatini strategik rejalashtirishda tizimli muammolarni keltirib chiqarmoqda.

7. Aholining kreditga layoqatliligini baholashda an’anaviy rasmiy daromad va kredit tarixiga asoslangan yondashuvning ustunligi, ayniqsa, o‘zini o‘zi band qilgan hamda norasmiy daromadga ega aholi uchun kredit olish imkoniyatlarini cheklamoqda.

8. Hududlarning (viloyat, tuman va shaharlar) iqtisodiy ixtisoslashuvi va ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib kredit resurslarini maqsadli taqsimlash tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq institutsional muammolar.

9. Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan kreditlash mexanizmlaridagi mavjud muammolar. Mazkur muammo tadqiqotning balki barcha davlat ulushidagi tijorat banklarining eng asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni bartaraf etishda tijorat banklari huzurida yoki ular bilan shartnomaviy asosda faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan kollektor kompaniyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa (Заключение / Conclusion).

Aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini takomillashtirish mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, garov ta’minotiga qo‘yiladigan talablarning yuqoriligi, kredit foiz stavkalari hamda kredit ajratish jarayonidagi tashkiliy to‘siqlar aholi tadbirkorligining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bois aholi tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda kreditlash shartlarini takomillashtirish, muqobil garov va kafillik mexanizmlarini kengaytirish, kredit ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda imtiyozli kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kredit oluvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish va ularga biznesni tashkil etish hamda boshqarish bo‘yicha amaliy ko‘mak ko‘rsatish kredit mablag‘laridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, aholi tadbirkorligini kreditlash tizimining samaradorligi nafaqat ajratilayotgan kreditlar hajmiga, balki ularning qulayligi, manzilliligi va iqtisodiy natijadorligiga ham bevosita bog‘liq. Mazkur yo‘nalishda institutsional va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Список использованной литературы / References)

1. Шумпетер Й. (1974) Основы предпринимательства. Пер. с нем. – М.:Дело, С. 132.
2. Лаврушин О (2016) Деньги, кредит, банки. - Москва: КНОРУС, С 448
3. Мухаммад Ю, Алан Ж (2010) Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, С 307
4. Schumpeter J (1934) The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press,– 255 p.
5. Berkinov B (2018) Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: “Iqtisodiyot”, 98-101-betlar
6. Alimardonov I (2023) Kichik biznes subyektlarini kreditlash: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent:“Iqtisod-moliya”. 12-bet.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi va Markaziy bankning hisobot ma’lumotlari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4862-sonli Qarori.
9. https://lex.uz/-O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.